

GAP BO‘LAKLARINI ANIQLASH METODI

Begaliyeva Go‘zal Shukurulla qizi

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ilmiy rahbar: dots. D. Abduvaliyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'limida gap bo'laklarining aniqlash doir metod hamda pedagogik texnologiyalar o'rganilgan. Maktabda o'quvchilarga oson usullar bilan gap bo'laklarini o'rgatish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: gap bo'laklari, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali, bo'laklar, ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, logik-grammatik bo'lak, inversiya, odatdagi tartib, o'zgargan tartib, gap bo'laklari tahlili.

Ma'lumki, gap bo'laklari bo'yicha tahlil kesimni aniqlashdan boshlanadi. Kesim aniqlangandan so'ng ularga bog'langan bo'laklar– ega va ikkinchi darajali bo'laklar belgilanadi. Masalan: Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yo'lning azobidan ham ortiqroq bo'ldi gapida kesim–ortiqroq bo'ldi, kesimga kim? nima? so'roqlarini berib, shu so'roqqa javob bo'luvchi bo'lak aniqlanadi: bu–chiqish so'zidir. Demak, chiqish bo'lagi ega vazifasidadir, chunki, kim? nima? so'roqlari faqat egaga taalluqlidir. Shundan so'ng kesimga savollar berib, kesim sostavi, egaga savollar berib, ega sostavi aniqlanadi: nimadan ham ortiqroq bo'ldi? azobidan ham, demak, to'ldiruvchi vazifasida, nimaning azobidan ham ortiqroq bo'ldi? –orqada qolgan yo'lning, demak, bu bo'lak– aniqlovchi. Bu gapda kesimga bog'lanuvchi bo'lak boshqa yo'q, qolgan ikkinchi darajali bo'laklar egaga bog'langan bo'lib chiqadi. Bu tepalikka chiqish orqada

qolgan yoʻlning azobidan ham ortiqroq boʻldi. Nimaga chiqish?—tepalikka, demak, bu boʻlak—toʻldiruvchi, egaga bogʻlangan; qaysi tepalikka chiqish?—bu, demak, u aniqlovchi: qaysi? qanday? qanaqa? qancha? kabi soʻroqlari aniqlovchiga, aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchiga beriladi. Shunday qilib, gap boʻlaklarining turi odatda bir-biriga nisbat berib aniqlanadi. Chunonchi, ega kesimga, kesim egaga nisbatan, toʻldiruvchi toʻldirmishga, hol hollanmishga, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan tayinlanadi. Nisbat beriluvchi unsur boʻlmas ekan, u yoki bu boʻlak haqida gapirish mumkin emas. Masalan, aniqlanmish boʻlmas ekan, aniqlovchi haqida, kesim boʻlmas ekan, ega haqida gapirib boʻlmaydi. Shu tariqa gap boʻlaklarining turini belgilashda sintaktik aloqaga kirishuvchi qismlarning turi, shakli, bir-biriga nisbati, leksik-semantik xususiyati va ularning sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar asosga olinadi¹.

Toʻgʻri, gapning boʻlaklariga soʻroqlar berish usuli bilan ularni aniqlash baʼzi jihatlaridan oʻzini oqlay olmaydi. Masalan, Biz ketdik boʻlmasa, xola (A.Q.) gapida biz ham, xola ham bir xil soʻroqqa (kim?) javob boʻladi, lekin ularning birinchisi (biz) gapning boʻlagi— ega, ikkinchisi esa (xola) gapning boʻlagi hisoblanmaydigan qism— undalmadir. Soʻroqlar sintaktik aloqa asosida bogʻlangan soʻzlarning biridan ikkinchisiga tomon qoʻyilganda, ular yordamida gapning boʻlaklarini belgilash mumkin boʻladi. Bunda undalma va kirish soʻzlar bilan gap boʻlaklarining chegarasi aniqlanadi, lekin gap boʻlaklarining turini belgilashda bu usuldan hamma vaqt ham foydalanib boʻlmaydi. Masalan, Sogʻligimiz—boyligimiz. (maqol) misolida gapning boʻlaklari mavjudligini soʻroqlar yordamida aniqlash mumkin, biroq ulardan qaysi biri gapning qanday boʻlagi ekanini soʻroqlar vositasida aniqlab boʻlmaydi. Chunki bu gapdagi

¹ Gʻulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.- B.292. (380 b)

bo‘laklarning har ikkovi bir xil so‘roqqa–nima? so‘rog‘iga javob bo‘lsa ham, ularning biri–ega, ikkinchisi–kesimdir. Gapning bo‘laklari maxsus grammatik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lganda, so‘roqlar ularning turini aniqlash uchun yordam berishi mumkin. Masalan, gapdagi biror so‘z (bo‘lak) kimni? nimani? so‘roqlaridan biriga javob bo‘lsa, to‘ldiruvchi, vositasiz to‘ldiruvchi, nima qildi? nima qilasan? kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘lsa, kesim deb ko‘rsatiladi. Lekin bu gap bo‘laklarining turini aniqlashdagi sof amaliy usuldir. Nazariy jihatdan qaraganda, gapdagi u yoki bu so‘z (bo‘lak) shunday so‘roqlarga javob bo‘lgani uchun to‘ldiruvchi yoki kesim vazifasida kelayotgani yo‘q, balki uning o‘zi to‘ldiruvchi yoki kesim bo‘lganidan shunday so‘roqlarni talab qilayotir. Shunday qilib, sintaktik aloqa, uning turi gapni bo‘laklarga ajratishda asosiy omildir. Gapning bo‘laklari orasidagi aloqa turli vositalar bilan ifodalanadi: so‘z shakllari orqali (sendan so‘radi), yordamchi so‘zlar orqali (mashina bilan terdik), tartib va ohang orqali (yam-yashil dalala –Dalalar yam-yashil). Gap bo‘laklarining turini aniqlashda ko‘pincha uning grammatik shakliga e‘tibor beramiz. To‘g‘ri, qaratqich kelishigi shaklidagi so‘z 292 aniqlovchi, tushum kelishigi shaklidagi so‘z esa to‘ldiruvchi bo‘ladi. Biroq o‘rin-payt, chiqish va jo‘nalish kelishiklari shaklidagi so‘zlar to‘ldiruvchi ham, hol ham bo‘lishi mumkin. Bunday vaqtda gap bo‘laklarining grammatik shakli ularning turini belgilash uchun asos bo‘la olmaydi. Gap bo‘laklarining turini belgilashda sintaktik aloqaga kirishuvchi elementlarning semantik xususiyatlari ham hisobga olinishi lozim: Mirzacho‘lda buyuk ishlar endi boshlandi. (Hol). Zulfiyada barcha insoniy xislatlar bor edi. (To‘ldir.) Misollardagi bir xil shakldagi (ko‘makchi, kelishik formasidagi) gap bo‘laklarining vazifasi bir xil emas: biri–to‘ldiruvchi, biri–hol. Bundan tashqari, farq o‘sha so‘zlar (bo‘laklar)ning semantik-sintaktik xususiyatlaridan kelib chiqadi va turlicha

savollarga javob bo‘ladi. Qiyoslab ko‘raylik: yuqoridagi birinchi guruh misolning birinchisida zavq bilan bo‘lagi qanday? qay tarzda? so‘roqlariga javob bo‘ladi, demak, hol vazifasida, ikkinchi gapdagi mashina bilan bo‘lagi esa nima bilan? so‘rog‘iga javob bo‘ladi—to‘ldiruvchi.

Gap bo‘laklari bo‘yicha tahlilda gap bo‘laklarini turli chiziqchalar vositasida ko‘rsatish ham mumkin (gap bo‘laklari grafik jihatdan turli chiziqchalar vositasi bilan ko‘rsatiladi): eganing tagiga bir to‘g‘ri 288 chiziq (), kesimning tagiga ikki to‘g‘ri chiziq (____), to‘ldiruvchining tagiga punktir chiziq (- - - - -), holning tagiga nuqtali punktir chiziq (- . - . - . - . -), aniqlovchining tagiga to‘lqinli chiziq (~ ~ ~ ~ ~) chizib ko‘rsatiladi. Bu usul boshqacha usullar (sxemaga solib ko‘rsatish, chizmada chizib ko‘rsatish, tepasiga yozish va boshqalar)ga nisbatan eng qulay usul sanaladi. Lekin chiziqlar gap bo‘laklarining ichki xususiyatlarini ko‘rsata olmaydi. (Masalan, to‘ldiruvchining turlari, aniqlovchining turlari, holning ma’no turlari kabi.) Shuning uchun bu usuldan foydalanganda har bir gap bo‘lagining ichki tasnifini uning tepasiga yozib ko‘rsatish bilan izohni to‘ldirish mumkin. Masalan: v – li to‘ld. v – li to‘ld. 1. Inson ilm va mehnat bilan baxtli bo‘ladi. v-siz sif. an. qar.anig o‘r.holi to‘ldiruvchi.

2. G‘ayratli o‘quvchilar maktab bog‘ida meva terdilar. Gap bo‘laklari bo‘yicha tahlilni har bir gap bo‘lagini vertikal chiziqlar bilan ajratib, so‘z vositasida izohlash ham mumkin: Bunda ham gap bo‘laklarining xususiyatlari to‘la aks etadi:

Ertalabki	Kuchli	Shamol	maktab	bog`idagi
aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi	aniqlovchi, sifatlovchi aniqlovchi	ega, (ot bilan ifodalangan)	aniqlovchi, qar. aniq (ot bilan	hol, o‘rin holi (ot bilan ifodalangan)

(sifat bilan ifodalangan)	(sifat bilan ifodalangan)		ifodalangan)	
Daraxtlarning		Mevalarini		to`kib yubordi
aniqlovchi, qaratqich aniql. (ot bilan ifodalangan)		to`ldiruvchi, vositasiz to`ldiruvchi(ot bilan ifodal.)		kesim, fe`l kesim, murakkab kesim (fe`l bilan ifodalangan)

Soʻzlar tartibi oʻzbek tilida nisbatan erkin boʻlganligi sababli gap boʻlaklarini aktuallashtirish imkoniyatlari juda yuqori. Shuning uchun ham mavqei jihatidan intonatsiya kabi hal qiluvchi omil boʻlib, uning kommunikativ funksiyasi deyarli barcha kontekstda ustun hisoblanadi, ya'ni habar mazmunidagi informativ markazni belgilab beradi, shuningdek, jumлага emotsional boʻyoqdorlik berish kabi uslubiy vazifani ham bajaradi. Gapda boʻlaklarning toʻgʻri tartibi logik-grammatik boʻlak va uslubiy talabga binoan tuzilsa, boʻlaklar tartibining oʻzgarishi koʻpincha uslubiy vazifani bajarib, emotsional nutqning ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi². Adabiy tildagi odatdagi tartib grammatik yoki mantiqiy-grammatik, grammatik-uslubiy talablarga muvofiq turli oʻzgarishlarga uchrasa, inversiya hodisasi vujudga keladi. Inversiyani vujudga keltiruvchi va belgilovchi omillar gapning tuzilishi, gap boʻlaklarining ifodalanish usuli va joylashish oʻrni, nutq xarakteri va urgʻuning oʻrni kabilardir.

Gap boʻlaklarining tartibi oʻzbek tilida, asosan, erkindir. Gapda ularning oʻrnini almashtirish har doim ham grammatik holatni oʻzgartiravermaydi. Masalan: *Talabalar yozgi ta'tilga chiqishdi. Yozgi ta'tilga talabalar chiqishdi.*

² Мусаев А.С. Ўзбек сўзлашув нутки услубида гап бўлакларининг тартиби. Филол. фан. номз....дис.. – Самарқанд: 2000.– Б. 28-32

Bu gaplarda so'zlarning o'rnini almashtirish bilan grammatik holat o'zgarmagan. Shunday bo'lsa-da gapning mazmunga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Odatda ega gap boshida, kesim esa gap oxirida, ikkinchi darajali bo'laklar orasida keladi. Bu esa gapdagi to'g'ri tartib hisoblanadi. Ammo ayrim hollarda gap bo'laklarining o'rne o'zgaradi bu esa ma'no ham o'zgartiradi. Ega bilan kesimning tartibini o'zgartirsak, ega kesim va aksincha kesim ega bo'lib qoladi. Masalan: *ikki yorti—bir butun; bir-butun—ikki yorti*.

Eganing ko'proq gap boshida, kesimning, asosan, gap oxirida (*Men keldim*), hol (*ohista gapirdi*) va to'ldiruvchining kesimdan (*she'rni yod oldi*), aniqlovchining egadan oldin (*qizil gul, do'stimning akasi*) joylashuvi odatdagi, me'yoriy tartibdir. Ma'no kuchaytirish uchun muhim bo'lak kesim oldiga o'tkaziladi. Masalan: 1. *Kecha akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga ketdi* (boshqa yerga emas, Toshkentga). 2. *Kecha akam samolyotda Toshkentga Farg'onadan ketdi* (boshqa yerdan emas, Farg'onadan). 3. *Kecha akam Farg'onadan Toshkentga samolyotda ketdi* (boshqa narsada emas, samolyotda). 4. *Kecha samolyotda Farg'onadan Toshkentga akam ketdi* (boshqa kishi emas, akam). 5. *Akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga kecha ketdi* (boshqa kuni emas, kecha). Odatdagi tartib ilmiy va rasmiy uslub uchun mos bo'lsa, o'zgargan tartib og'zaki va badiiy (ayniqsa, she'riy) nutq uslubi uchun xos³.

Gap bo'laklarining tartibini qiyidagi sxema orqali tushuntirish anchayin sodda va mazmunli bo'ladi:

Odatdagi tartib

Ega → kesim

Aniqlovchi → ega → to'ldiruvchi → hol → kesim

³ Qodirov H., Ne'matov H., Abdurayimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8sinfi uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon nashriyot-matbaa uyi, 2022- B.93.

O`zgargan tartib

Kesim → ega

Kesim → to`ldiruvchi

Ega → kesim → hol

Odatdagi tartib:

1. Ega o`zining aniqlovchisi bilan kesimdan oldin keladi: *Bilimdon talabalar topshiriqni puxta bajaradilar.*
2. To`ldiruvchi o`zining aniqlovchisi bilan kesimdan oldin keladi: *Kechagi vazifani bajarish kerak.*
3. Payt holi va vaziyat holi kesimdan oldin keladi: *Kechagi voqeani kula-kula so`zlab berdi.*

O`zgargan tartib

1. Ega kesimdan keyin keladi: *Bo`ldi taajjub qiziq hangomalar.*
2. To`ldiruvchi kesimdan keyin keladi: *Kezdim gulzor yang`lig` bog`larni.*
3. Payt holi, o`rin holi va vaziyat holi kesimdan keyin keladi: *Bir doktor kelibdi Toshkentdan. Gapirdi zavqlanib.*

4. Qaratqich qaralmishdan keyin: *O`zbekiston–Vatanim manim.*

Umumta`lim maktab o`quvchilari uchun mavzu tushunarli bo`lishi uchun quyidagi topshiriq va mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1-mashq. Berilgan gaplardagi gap bo`laklarining odatdagi tartibini o`zgartirib, nechta gap bo`lagi bo`lsa, shuncha miqdorda gap tuzing.

1. Oila farzandlardan boshlanadi. (A.Gersen)
2. Bolalar – jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Ularsiz jamiyat jonsiz va sovuq ko`rinadi. (A.Makarenko)
3. Dunyoda go`dakning tilidan ko`ra antanaliroq gimn yo`q. (V.Gyugo)
4. Bolalar mehnatga shodlik bag`ishlaydilar, uning sharofati bilan hayot yanada shirin

bo'ladi. (*F.Bekon*)

2-mashq. Berilgan gaplardagi gap bo'laklarini odatdagi tartib bo'yicha joylashtiring.

1. Hammadan balanddir ona mansabi. (*Abdurahmon Jomiy*) 2. Boshni fido ayla ato boshig'a, jismni qil sadqa ano qoshig'a. (*Alisher Navoiy*) 3. Odamning mevasi farzand emish derlar bu dunyoda. (*Sayyodiy*) 4. Farzand mehri aritar g'am zangini ko'nguldin. (*Nodira*)

3-mashq. Quyidagi gaplardan qaysilarida gap bo'laklarining odatdagi tartibi o'zgargan.

I. 1. Gar bu gulshanda ano bo'lsa gul-u sarv – ato, sen kabi tug'mag'usi sarvi gulandom o'g'ul. (*Ogahiy*) 2. Har birdaraxtning mevasi bor, ko'ngilning mevasi esa farzanddir. (*«O'talar so'zi»*) 3. O'shal farzand birla shod bo'lg'ay, bori qayg'usidin ozod bo'lg'ay. (*Sayyodiy*)

II. 1. O'zing ham, moling ham otangnikidir. (*Hadis*) 2. Atoga kim bu yanglig' qilsa xizmat, o'z o'g'lindin aningdek topg'ay izzat. (*Qutb*) 3. Namozni bomdoddin keyin volidangni ziyorat qil va xizmatida bo'l. (*Muhammad Siddiq Rushdiy*)

III. 1. Jannat onalar oyog'i ostidadir. (*Hadis*) 2. Otalarning do'stligi bolalarni yaqinlashtiradi. (*«O'talar so'zi»*) 3. Ota-ona behad bo'ladi xursand, farzand bo'la olsa munosib farzand. (*Muhammad Javhar Zamindor*)

Topshiriq. Yuqoridagi gaplarni jadvalga mos ravishda joylashtiring.

	Gap bo'laklarining me'yoriy tartibi	Gap bo'laklarining o'zgargan tartibi

--	--	--

uyga vazifa sifatida quyidagi topshiriqni berish maqsadga muvofiqdir:

She'rni ifodali o'qing. Uni nasriy bayon qiling. Undagi gap bo'laklarining odatdagi va o'zgargan tartibiga diqqat qiling.

KO'KLAM KELADIR!

Ko'klamoyim yo'lga chiqqan. Ko'klamoyim qo'zg'algan,
Ko'k ko'ylakning bitishiga, uncha ko'p ham qolmagan!
Tiniq havo... ko'k yuzinda oppoq, harir pardadek
Oq bulutlar, unda-munda yopilganlar parishon.
Shu'lalarning aksi bilan, yiltillagan, yongandek,
Kun tig'lari, qarashlarga o'tkir-o'tkir sanchilgan...
Qip-yalong'och daraxtlar ham quchoq ochib, ko'z tutib,
Ko'k ko'ylakning bitishini chidamasdan kutalar.
Qarg'alar ham qishda qilgan gunohlarni unutib,
Uzr aytmasdan, indamasdan uchib-uchib ketalar.
Sezgilarni uyg'otuvchi hidli gullar to'planib:
«Biz ham yo'lga chiqdik!» deya yuborganlar bir chopar.
Gul hididan rizq emguvchi jonivorlar uyg'onib,
Erta-indin bog'chalarga, chamanlarga oralar.
Ko'klamoyning ipak ko'ylak etaklari sudralib,
Qora yerning boshlarini silab-siypab keladir.
Dillarga ham havolardek ko'klam ruhi kiradir!..

So'zning teskari yoki ekspressiv tartibida, odatda rema temadan oldingi pozitsiyaga o'tadi. Bunday turdagi gaplarda voqelikka qo'shimcha

emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik qo‘shilib, asosan nazm va og‘zaki nutq uchun xosdir. So‘zlashuv nutqida tartib o‘zgarishlari birmuncha o‘ziga xoslikka ega. Chunki so‘zlashuv nutqining asosiy xususiyatlaridan biri avvalo, asosiy narsani tasdiq yoki inkorni bildirib, boshqalarni undan keyin ta’kidlashdir⁴.

Fikrimizcha, amaldagi darsliklarning qayta nashrlariga yuqoridagi kabi topshiriqli nutqiy mashqlar kiritilsa, fikrni mustaqil ravishda matn tarzida ifodalash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alavutdinova N., Karimjonova V. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.- B.292. (380 b)
2. Мусаев А.С. Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлақларининг тартиби. Филол. фан. номз....дис.. – Самарқанд: 2000.– Б. 28-32
3. Qodirov H., Ne‘matov H., Abdurayimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8sinfi uchun darslik. – Toshkent: Cho‘lpon nashriyot-matbaa uyi, 2022- B.93.

⁴ Мусаев А.С. Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлақларининг тартиби. Филол. фан. номз....дис.. – Самарқанд: 2000.– Б. 28.